



**Maktabgacha va maktab  
ta'lim vazirligi**

**YO'L HARAKATI  
QOIDALARI**

**KARTOTEKASI**

**TAYYORLOV GRUHI**

**NAMUNA**

## “TAKSI”

**Maqsad:** Bola avtomobillar turar joylari haqida tushuntirib bera oladi, jamoat joylarida o'zini tuta oladi. Transport turlarni farqlaydi. Kuzatish, tahlil qilish, xulosa chiqarish malakasiga ega bo'ladi.

**Kerakli jihozlar:** Haydovchi kiyimi, salon va o'rindiqlar.

O'yin faoliyatining borishi:

**Tarbiyachi:** - Bolajonlar, sizlar taksida yurganmisizlar? u haqida qanday tasavvurga egasizlar?

1- **bola:** - Taksida oyim va dadam bilan istirohat bog'iga borganmiz. Taksi qulay transport vositasi.

2- **bola:** - Bizga oyim doim barcha sharoitlarga ega taksini chaqiradilar. Taksida yurish juda ham qulay.

**Tarbiyachi:** - Taksi haydovchisi qanaqa bo'lishi kerak?

3- **bola:** - Taksi haydovchisi yo'lovchi bilan xushmuomala bo'lishi, mashinani qoidalarga rioya etgan holda boshqarishi kerak.

**Tarbiyachi:** - Bolajonlar, kelinglar hozir yo'lovchilar va taksi haydovchisi rolim o'ynaymiz.

(Bolalar orasidan taksi haydovchisi va yo'lovchilar ajratib olinadi).

**Tarbiyachi:** - Yo'lovilar va haydovchilar sizlar har doim yo'l harakati qoidalariga amal qilishingiz lozim. Qani. bo'lmasa, yolovchi o'zingiz boradigan manzilning nomini ayting, haydovchi esa o'sha yerga eltib qo'yadi

**Yo'lovchi:** - Meni usta Olim ko'chasiga olib borib qo'ying.

**Haydovchi:** - Xo'p bo'ladi.

(Yo'lovchi mashinaga o'tiradi).

**Haydovchi:** - Siz tartibli piyoda ekansiz. Piyodalar katta yo'llarda piyodalar o'tish yo'lakchalaridan o'tishlari kerak, agarda. ko'cha chekkasidan yursa. qatnovga qarama-qarshi tomondan yurishlari shart. Aks holda piyodaning hayoti xavf ostida qoladi

**Yo'lovchi:** - Haydovchi aka to'g'ri aytayapsiz. Mana siz svetotorning qizil chirog'ida to'xtadingiz, sariq chirog'ida sergak tortib, yashil chirog'ida yurayapsiz. Piyodalar yo'lakchasida yo'lovchilarni ko'rganingizda to'xtayapsiz.

**Haydovchi:** -Axir bu mening haydovchi sifatida bajarishim kerak bo'lgan vazifam.

# NAMUNA



## “AVTOBUS”

**Maqsad:** Bolalarga avtobus to‘xtash joylari haqida ma’lumot berish, jamoat joy- larida o‘zim tutish qoidalari haqida tushuntirish. Transport turlarini farqlay olish, tahlil qilish ko‘nikmasiga ega boladi.

**Kerakli jihozlar:** Haydovchi kiyimi, salon va o‘rindiqlar.

O‘yin faoliyatining borishi:

**Tarbiyachi:** - Bolajonlar, sizlar mehmonga, istirohat bog‘iga, bozorga borganda ota-onangiz bilan qaysi jamoat transportidan foydalanasizlar?

1- **bola:** - Biz dadamning mashinasida ketamiz.

2- **bola:** - Biz avtobusda boramiz.

**Tarbiyachi:** - Bolalar kelinglar bugun bizlar siz bilan istirohat bog‘iga avtobusda borishni rejalashiiramiz. Qani, kim avtobus haydovchisi bo‘ladi?

3- **bola:** - Men haydovchi bo‘laman.

4- **boLa:** - Men chiptachi bo‘laman.

**Tarbiyachi:** - Unda avtobusga chiqib joylashib o‘tirib olarmiz. Bolalar,

# NAMUNA

**Bolalar:** - Yo‘q, avtobus saloniga chiqindi tashlash mumkin emas.

**Tarbiyachi:** - Bolajonlar hozir biz yo‘lovchurnz va chiptachidan chipta sotib olishimiz kerak. Evaziga chiptachi bizga chipta beradi.

(Bolalar chiptachidan chipta sotib oladilar va bu jarayonda rahmat, salomat bo‘ling kabi iboralarni ishlatadi).

**Tarbiyachi:** - Bolalar, mana biz manzilga ham yetib keldik. Endi hammamiz ehti- yot bo‘lib avtobusdan tushamiz.

(Bolalar va tarbiyachi avtobusdan tushishadi).



## “KO‘CHALARDA YURISH QOIDASI”

**Maqsad:** Bolalarni tartibli piyoda bo‘lishga o‘rgatish, ularga yo‘l harakati qoidalari haqida tushuncha berish.

**Kerakli jihozlar:** Avtobus maketi, har xil tashkilot binolari maketi, yo‘l belgilari, DAN xodimi kiyimlari.

**O‘yin rollari:** Tarbiyachi, bolalar, DAN xodimi.

O‘yin faoliyatining borishi:

O‘yin bog‘cha hovlisida o‘tkazilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Har xil binolar maketi, chorraha, svetofor va boshqa predmetlar bilan jihozlanadi. Tarbiyachi shahar ko‘chalariga sayr qilishni taklif qiladi.

**Tarbiyachi:** - Bolajonlar bugun shahar ko‘chalariga sayr qilamiz.

**Bolajonlar:** (Bir ovozdan) - Qanday yaxshi!

**Tarbiyachi:** - Hamma o‘rtog‘i bilan saflansin.

**Bolajonlar:** - Xo‘p bo‘ladi.

Tarbiyachi va bolalai hovli tomon yo‘l olishadi. Jihozlangan hududda aylanadi.

**Bolalardan biri:** - Bog‘cha opa bu bino nima?

**Tarbiyachi:** - Bu bino - maktab. U yerda sizlar bog‘chani tugatgandan keyin ta‘lim olasizlar.

**Bolalardan biri:** - Maktab juda chiroyli va katta ekan. Menga yoqdi.

**Tarbiyachi:** - Bolalar bu yer chorraha deviladi. 4 ta yo‘lning kesishgan joyi. Ana svetafor.

**Bolalardan biri:** - Ha svetoforni mashg‘ulotda yasagan edik.

# NAMUNA

Yo‘lovchilar yo‘lning faqatgina shu chiziqlar bor bo‘lgan joyidan kesib o‘tishi mumkin.

**Bolalardan biri:** - Aha tushunarli, esimda saqlayman har doim. Bu belgi qanday belgi? (piyodalar yo‘lakchasida “Velosiped yo‘lagi” belgisini ko‘rsatib).

**Tarbiyachi:** - Bu belgi “Velosiped uchish yo‘lak” belgisi. Bu yerda siz velosiped, sarnokat uchishingiz mumkin.

**Botalardan biri:** - Maylimi, velosiped uchsam?

**Tarbiyachi:** - Mayli uchaqol.

**Bolalardan biri:** - Bog‘cha opa men bu nimaligini bilaman (go‘zallik salonini ko‘rsatib) bu yer “Go‘zallik saloni” bu

yerga oyim bilan birga kelganman.

**Tarbiyachi:** - Ha bu ayollar "Go'zallik saloni" bu yerda ayol va qizlar sochlarini chiroyli qiliadi, turmaklash uchun keladi.

**Bolalardan biri:** - Bog'cha opa mana bu bino nima?

**Tarbiyachi:** - Bu bino - bank. Bankda to'lov ishlari amalga oshiriladi.

**Bolalardan biri:** - Ha bank chiroyli ekan. Militsiya bor ekan.

**Tarbiyachi:** - Ha DAN xodimi. Yo'lda tartibni saqlaydi. Qani bolajonlar salom beramiz.

**Bolajonlar:** (jo'r ovozda) - Assalomu alaykum


**DAN xodimi:** - Vaalaykum assalom. Barakalla bolajonlar. Yo'llarda ehtiyot bo'lib yuringlar.

**Bolajonlar:** - Rahmat (jo'r ovozda).

**Tarbiyachi:** - Bolajonlar bugungi ekskursiyamiz tugadi. Endi tartib bilan bog'chamizga qaytamiz. Ekskursiya yoqdimi?

**Bolajonlar:** - Yoqdi (jo'r ovozda).

O'yin yakunlangach bolalar bilan shahar ko'chalari, nimalarga duch kelgani, yo'l belgilari haqida suhbat uyushtiriladi.



**veb-saytimiz: Zokirjon.com**  
**Zokirjon.com veb-saytimiz orqali o'zingizga**  
**kerak bo'lgan hujjatlarni yuklab oling.**

**Zokirjon Admin bilan**  
**+99891-328-88-38 nomerga yoki**  
**jek567 izlab telegramga yozishingiz**  
**so'raladi.**


**Telegramda murojaatingizga**  
**o'z vaqtida javob beriladi.**

**34 listdan iborat tayyorlov guruhlariga yo'l**  
**harakati qoidalari kartotekasini to'liq holda**  
**olish uchun telegramdan yozing.**



**Telegram kanalimiz:**  
**@maktabgacha\_tt**

**To'lov uchun: HUMO 9860230104973329**  
**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



## **DIQQAT!!!**

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.  
To'liq holda olganingizdan so'ng:  
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.  
Hech kimga bermang hattoki eng  
yaqin insoningizga ham.  
Internet orqali veb-saytlarga  
joylamang.  
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA**  
**HIYONAT QILMANG.**